AHOLIGA TEZ TIBBIY YORDAM KO'RSATISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH TO'G'RISIDAGI PQ-283 SON QAROR TAXLILI

Xayitboyeva Zulfizarxon Saparbayevna-Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali o'qituvchisi

Tel: +998902545349

Masardinov Xushnudbek Bozorboy o'g'li- Paxtaobod tumani tez tibbiy yordam bo'limi navbatchi feldsheri

xushnudbekmasardinov@gmail.com +99894 385 36 25

Annotatsiya.

Maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 283-son qarorining taxlili, mazmuni xaqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Aholi, tez tibbiy yordam, 283-son qaror,inson qadri, tibbiyotdagi islohotlar, shoshilinch yordam, vertikal boshqaruv.

Xozirgi paytda dunyo bo'yicha uchraydigan kasalliklar turi juda ko'p. Bularga tez, sifatli xizmat ko'rsatish muxim xisoblanadi. Bu borada tez tibbiy yordam va shoshilinch yordamlarni takomillashtirish eng yaxshi yechimlardan biridir. Xar yili aholining demografik soni ortib bormoqda. Bular orasida kasalliklar ham ko'payib bormoqda. Bu esa ularga tez, ishonchli, sifatli yordam ko'rsatishni talab qiladi. Bu borada yurtimizda bir qator davomli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan Prezidentimizning 2022-yil 16-iyunda chiqqan 283-son PQ bunga yorqin misol bo'la oladi. Bu qaror aholiga tez tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish

to’g’risida bo’lib, bu qaror yuzasidan qator ko’plab ulkan ishlar amalga oshirildi. Xususan, tez tibbiy yordam bo’limida yagona vertical boshqaruv tizimi yo’lga qo’yildi.

Xattoki onaning ham sog’lig’iga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Buning misoli safatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni bilan reproduktiv yoshdagi va homilador ayollar, bolalar uchun yuqori texnologik tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, perinatal markazlarni zarur tibbiy texnika va buyumlar bilan jihozlash, ularni malakali kadrlar bilan ta’minlash vazifasi belgilandi.

Joylarda tez tibbiy yordam va shoshilinch yordam ko’rsatish tizimini takomillashtirish bo’yicha quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

a) Markaz va uning hududiy filiallarini 4-ilovaga muvofiq joylashtirish, ularni zamonaviy bino va inshootlar bilan ta’minlash;

b) Markazning hududiy filiallari va “Call-markaz”larni jihozlash, infratuzilmasini yaratish (suv, elektr, aloqa, Internet, lokal tarmoq va boshqalar);

v) tez tibbiy yordam xizmati xodimlarini hamda avtotransport vositalari, ehtiyot qismlar, yoqilg‘i-moylash va boshqa materiallar, dori vositalari, sarflash materiallari va tibbiy jihozlar ta’minotini hududiy filiallarga o‘tkazish;

g) markaziy tuman (shahar) shifoxonalari qabulxonalarini shoshilinch xizmat ko‘rsatishga va yuqori texnologik tibbiy jihozlarni o‘rnatishga moslashtirish;

d) tez tibbiy yordam avtotransport vositalariga radioaloqa vositalari va GPS-trekerlar o‘rnatish;

e) tez tibbiy yordam brigadalarini planshetlar bilan ta’minlash;

j) Markazning hududiy filiallarida elektron avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini Toshkent shahri tajribasi asosida joriy etish;

z) tez tibbiy yordam avtotransport vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish, ularni yoqilg‘i-moylash materiallari bilan ta’minlashni autsorsingga o‘tkazish hamda elektron tizim orqali nazorat qilishni tashkillashtirish.

Bundan tashqari : 1.Tez tibbiy yordam bo‘yicha elektron avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi yo‘lga qo‘yilgan hududlarda ushbu tizimdagi ma’lumotlardan foydalangan holda xodimlar faoliyatini **KPI tizimi orqali baholash mexanizmini joriy etish**.

2.Markaz va uning hududiy filiallarida davlat tadbirlaridan tashqari boshqa tadbirlarga tez yordam brigadalarini jalb qilishni pullik asosda tashkil etish.

3. Tez tibbiy yordam xizmati xodimlarini o‘qitish tizimini takomillashtirish va malaka oshirishning yangi mexanizmlarini joriy etish.

4. Respublika tez tibbiy yordam markazi xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash maktabi faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

Bunda quyidagilar nazarda tutiladi:

Maktabning hududiy filiallarini tashkil etish va ularning grant hamda homiylar mablag‘lari hisobidan jihozlanishini ta’minlash;

Maktab va uning hududiy filiallariga pullik xizmatlarni tashkil qilishga hamda pullik xizmatlardan kelib tushgan mablag‘larni o‘zining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga, KPI tizimi asosida xodimlarni munosib rag‘batlantirishga yo‘naltirishga ruxsat berish;

tez tibbiy yordam brigadalarining **12 mingdan** ziyod shifokorlari va **28 mingga** yaqin feldsher va hamshiralarini o‘qitish tizimini yo‘lga qo‘yish;

malaka oshirish jarayoniga Turkiya, Koreya Respublikasi va Fransiya kabi tez tibbiy yordam tizimi rivojlangan mamlakatlardan mutaxassislar jalb qilish va yana boshqa ko'plab chora tadbirlar ko'zlangan bo'lib, xozirgacha bu borada davomli ishlar ketmoqda. Yuqoridagilarning barchasi ushbu qarorning mazmun moxiyatini ochib berishga xizmat qilaoladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, tez tibbiy yordam va shoshilinch yordam bo'limlari so'ngi besh yil davomida ancha rivojlandi. Hamda moddiy texnik bazasi, dori –darmon zaxiralari ko'payib, aholiga ancha sifatli xizmat ko'rsatilib kelinyapti. Aholi o'rtasidagi kasalliklarning ham oldini olishga erishilmoqda. Tez tibbiy yordam ko'rsatish sifati yaxshilanib, tushgan chaqiruvlarga ancha erta bo'rib birinchi yordam ko'rsatilmoqda. Bu ishlardan aholini ham xursand bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Shunday rivojlanishda ketilsa yana oz fursatdan so'ng, tibbiyotimiz yanada gullab yashnaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.PQ-283-son qarori

2.PF-60-sonli farmoni

3.lex.uz

4. https://lex.uz/ru/docs/-6076135